



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

13.00.00 - Pedagogika fanlari
07.00.00 - Tarix fanlari
19.00.00 - Psixologiya fanlari
01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
02.00.00 - Kimyo fanlari
03.00.00 - Biologiya fanlari
09.00.00 - Falsafa fanlari
10.00.00 - Filologiya fanlari
11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wooskyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor
Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics
Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTРУKТИV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	10
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	16
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	21
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI.....	29
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	33
Botirova Dilafruz Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI.....	39
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI.....	42
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI.....	46
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	49
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	54
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	58
Saidova Nargiza Ismatulla qizi PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	62
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna OTA-ONALARNING RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH USLUBI VA BOLALARDA INTERNET QARAMLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	67
Maxammadjonov Sherzodbek Ravshanbek o'g'li PSIXOLOGIYADA IJTIMOY MOTIVLAR MUAMMOSIGA BO'LGAN YONDASHUVLAR.....	71
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li OILAVIY ZIDDIYATLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI VA ULARNI HAL ETISH USULLARI.....	74
Raximova Gulxayo Alisherovna O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK MANBALARDAGI TAHLILI.....	79
Matyakubova Shohista Odamboy qizi BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI (6-8 YOSH) CHAP QO'LI DOMINANT BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI.....	82
Usmanova Sevara Akmalovna OILA VA KASB MUVOZANATI MUAMMOSI ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA.....	86
Teshayev Sobit Sodik o'g'li PEDAGOGLARDA IJOBIY FIKR SHAKLLANISHIDA OPTIMIZMNING NAMOYON BO'LISHI.....	90
Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna ПЕРФЕКЦИОНИЗМ КАК ФАКТОР ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ.....	95
Атабоев Н.И O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLAR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	100
Maripova Asalxon Botiraliyevna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN'ATGA QIZIQISHLAR SHAKLLANISHI.....	105
Salaxidinova Xolida Xaliljonovna	



O'SMIRLARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	110
Rustamov Narzillo Raxmonovich	
XORIJ PSIXOLOGIYASIDA "SHAXS O'Z IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQRISH" TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	113
Alimova Yayra Hotamovna	
PSIXOLOGIYADA PSIXOFIZIOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI.....	119
Yakubova Guzal Asatullayevna	
PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY DEFORMATSIYA: SABABLARI VA OQIBATLARI.....	124
Abdulxomidova Fotimaxon Abdulxopizovna	
PSIXOLOGIYA FANIDA "STRESS" VA "STRESSGA BARQARORLIK" TUSHUNCHALARINING MAZMUNI.....	129
Ergashev Hasanboy	
YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI DINAMIKASI.....	133
Niyozmetova Munira Ibragimovna	
MAKTABDA SAMARALI PEDAGOGIK USULLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	138
Abdurahmonova Firuza Muhiddinovna	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	142
N.X.Shakirova	
OGNITIV JARAYONLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TA'LIMDAGI ROLI.....	147
Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li	
MULOQOTDA SHAXS YO'NALGANLIGI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA.....	151
Raximova E'tibor Rustamovna	
OLIY TA'LIM MUASSASA TALABALARI TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUV MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHIGA SUN'IY INTELLEKTNING TA'SIRI.....	156
R.M.Baxtiyorov	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	162
Abduhalimova Durdona Ilhomovna	
BOKSCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qon'irbaev Dastan	
BOG'CHA YOSHDAGI BOLALARDA XAYOLNING RIVOJLANISHI.....	173
Temirova Dilfuza Olim qizi	
TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING XORIJ ADABIYOTLARDA YORITILISHI.....	177
Shukurullayev Xamidulla Nurilla o'g'li	
O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI.....	182
Feruza Alimova Najimovna	



TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING XORIJIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Shukurullayev Xamidulla Nurilla o'g'li

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil taqdiqotchisi

Annotatsiya. Ta'lim dargohi talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar va samarali muloqot ta'lim jarayoni uchun nihoyatda muhimdir. Talabalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar xorijiy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko'p qirrali tadqiqotlar asosida yoritilgan bo'lib, ular guruh dinamikasining o'zgaruvchanligi, nizolar yuzaga kelishi va ularni hal etish mexanizmlari, hamkorlik hamda kooperatsiya tamoyillari orqali keng tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda ta'lim muhitida talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik jihatlar, ta'sir usullari va o'rganish mexanizmlari ko'rib chiqiladi hamda ularning o'quv vazifasi tuzilmasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalari bilan aloqadorlik darajasi turli nazariyalar bilan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: kontakt gipotezasi, muloqot, ijtimoiy identifikatsiya, muloqot muammosi, gipoteza, ijtimoiy rol, perseptiv tomon, talabaning fikrlash faoliyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy tengsizlik, dominantlik, ijtimoiy foydalilik, o'rganish obyekti.

Abstract. Interpersonal relationships and effective communication within a student community are crucial for the educational process. In foreign psychological and pedagogical literature, student interpersonal relationships are examined from multiple perspectives, including group dynamics, conflict emergence and resolution mechanisms, and principles of cooperation and collaboration. This research explores the psychological aspects that influence the formation of interpersonal relations in the educational environment, the mechanisms of influence and learning, and compares the structure of educational tasks and interpersonal communication skills with various theoretical frameworks.

Key words: contact hypothesis, communication, social identification, communication issues, hypothesis, social role, perceptual aspect, students' thinking activity, manageability, social inequality, dominance, social usefulness, object of study.

Аннотация. Межличностные отношения и эффективная коммуникация в студенческом коллективе образовательного учреждения имеют важное значение для процесса обучения. В зарубежной психологической и педагогической литературе межличностные отношения студентов рассматриваются с различных сторон, включая динамику групп, возникновение конфликтов и механизмы их разрешения, принципы сотрудничества и кооперации. В настоящем исследовании анализируются психологические аспекты формирования межличностных отношений в учебной среде, способы их воздействия и механизмы изучения, а также сопоставляется структура учебных задач и навыков межличностного общения с различными научными теориями.

Ключевые слова: гипотеза контакта, коммуникация, социальная идентификация, проблема общения, гипотеза, социальная роль, перцептивная сторона, мыслительная активность студента, управляемость, социальное неравенство, доминантность, социальная полезность, объект изучения.

KIRISH

Talabalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar xorijiy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko'p qirrali va tizimli ravishda o'rganilgan. Asosiy e'tibor shaxslararo munosabatlarning shakllanish mexanizmlari, kommunikatsiya uslublari, rollararo o'zaro ta'sirlar, empatiya darajasi va ijtimoiy jihatdan qabul qilingan xulqiy me'yorlarga qaratiladi. Bu doirada talabalar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muhit, uning barqarorligi, guruh a'zolarining bir-biriga nisbatan bo'lgan munosabati hamda shaxsning ijtimo



moiy moslashuv darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotlarda talabalar guruhi — bu ijtimoiy rollar, kutishlar, xatti-harakat me'yorlari va ijtimoiy identifikatsiya shakllarining murakkab tizimi sifatida qaraladi. Tashqi va ichki rollar orqali talaba o'z pozitsiyasini aniqlaydi, shuningdek, o'zaro baholash asosida guruhda o'z obro'sini shakllantiradi. Bu jarayonda shaxslararo empatik aloqalar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hissiy rezonans muhim rol o'ynaydi. G'arb adabiyotlarida ayniqsa guruhlararo ko'chish, subguruhlarining shakllanishi, ijtimoiy tengsizlik va dominant pozitsiyalarning barqarorligi bo'yicha chuqur nazariyalar ilgari surilgan.

Ko'plab xorijiy ishlar talabalar jamoalarida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar — masalan, chet ellik talabalar integratsiyasi, jamoviy ajralish, raqobat, ijtimoiy izolyatsiya holatlari — bilan bog'liq holda shaxslararo munosabatlarning barqarorligi va ijobiy shakllanishi masalalarini ko'taradi. Bu holatda o'zaro kommunikatsiyaning verbal va neverbal jihatlari, ijtimoiy sezgirlik, madaniyatlararo tolerantlik darajasi va individual ijtimoiy tajriba asosiy omillar sifatida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talaba jamoasida liderlikning norasmiy shakllari, psixologik o'zaro bog'liqlik darajasi, jamoadagi ishonch muhitining shakllanishi kabi elementlar xorijiy adabiyotlarda alohida boblar yoki nazariy modellar shaklida yoritilgan. Bu yondashuvlar o'z navbatida guruh dinamikasining o'zgaruvchanligi, konfliktlarning yuzaga kelishi va ularning hal etilish mexanizmlari, hamkorlik va kooperatsiya tamoyillari orqali keng tahlil qilinadi.

Xorij psixolog olimlaridan shaxslararo munosabatlar masalasida A.Adler, G.Allport, A.Bandura, E.Bern, V.Frankllar shaxsning ijtimoiy ahamiyat hissi va o'zini foydali his qilish zarurati bilan bog'liq ekanligini, ijtimoiy ong, empatiya va stereotiplarning bartaraf etilishi talabalar o'rtasida ijobiy aloqalarni mustahkamlashini ta'riflagan. Talabalar muloqotini ijtimoiy o'rganish, modelga ergashish va o'z-o'zini boshqarish orqali shakllanishini asoslab, ego holatlari orqali yuzaga keluvchi muloqot turli transaksiyalar sifatida tahlil etilishini ko'rsatganlar.

A. Adler fikrlariga ko'ra, shaxslararo munosabatlarning shakllanishi insonning ijtimoiy ongiga va uning jamoada egallagan o'rniga bevosita bog'liq. Adlarning individual psixologiya nazariyasida har bir insonda "ijtimoiy foydalilik" yoki "ijtimoiy hissiy mas'uliyat" degan ichki ehtiyoj mavjud bo'lib, bu ehtiyoj uni boshqalar bilan ijobiy aloqada bo'lishga undaydi. Talabalar jamoasida bu holat talabaning o'zini foydali his qilish istagi orqali namoyon bo'ladi. Uning nazarida shaxsiy komplekslar yoki pastlik hissi jamoada bo'ladigan nizolar, tortishuvlar yoki chetlab o'tishlarning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Adler talabalar o'rtasida do'stlik, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirish orqali ruhiy muvozanatni saqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Shaxslararo munosabatlarning sog'lom bo'lishi har bir a'zoning o'zini qadrli va jamoaning ajralmas bo'lagi sifatida his qilishiga bog'liqdir. Shuningdek, Adler ijtimoiy manfaat va shaxsiy manfaat o'rtasidagi muvozanatni talaba shaxsiyatining barqaror rivojlanishiga olib boruvchi omil sifatida ko'radi. Bu nuqtayi nazar talabalar guruhlarida kooperatsiyaga asoslangan yondashuvning ahamiyatini chuqur anglatadi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

G. Allportning shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlari ijtimoiy tajriba, stereotiplar va shaxslararo sezgirlik bilan bog'liq. U ijtimoiy ong va shaxsiy tajribaning talabalar o'rtasidagi muloqotni belgilovchi asosiy omillar ekanligini ko'rsatadi. Allport fikricha, talabalar guruhida yuzaga keladigan ijtimoiy ongning yuqoriligi o'zaro tushunish va qabul qilishni osonlashtiradi. Uning nazariyasida "kontakt gipotezasi" muhim o'rin tutadi: bu gipotezaga ko'ra, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri va barobar huquqli aloqa ijobiy natijalarga olib keladi. Talabalar orasida doimiy va ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligi va o'zaro hurmat ijtimoiy integratsiyani mustahkamlovchi omil sifatida ko'riladi. Allport, shuningdek, shaxslararo munosabatlar barqarorligi uchun salbiy stereotiplardan xalos bo'lishni muhim deb biladi. Talabalarning bir-birini baholashda odilona yondashuvi va empatiyasi jamoadagi ruhiy salomatlikni saqlaydi. Uning yondashuvi shaxsiy va ijtimoiy psixologiya chegarasida chuqur asoslangan bo'lib, shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy psixologik mezonlariga e'tibor qaratadi [2].

A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlar odamlar bir-birining xatti-harakatlarini kuzatish va ulardan o'rganish orqali shakllanadi. Bu jarayonda modellashtirish (modelling) markaziy o'rinni egallaydi, ya'ni talaba boshqalarning ijtimoiy qabul qilingan harakatlarini kuzatib,

o'z munosabatlarini moslashtiradi. Bandura talabalar orasida kuzatish orqali o'rganishning muhimligini ta'kidlab, do'stona, qo'llab-quvvatlovchi va bag'rikeng ijtimoiy modelni ko'rsatishni zarur deb biladi. U shuningdek, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari talabalar o'rtasidagi barqaror aloqalarning shakllanishida hal qiluvchi omillar ekanligini bildiradi. Shaxs o'zining xatti-harakatlariga baho berar ekan, guruhdagi javob va ijtimoiy fikrni ham inobatga oladi. Talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar faqatgina hissiy yondashuv emas, balki kognitiv jarayonlarning natijasi sifatida ham qaraladi. Bandura ijtimoiy o'rganish va shaxsiy javobgarlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash orqali sog'lom jamoaviy muhitni yaratish mumkinligini isbotlaydi [3].

E. Bern tomonidan ilgari surilgan transaksion analiz nazariyasi talabalar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi. Bern shaxsning uchta egosi – Ota, Katta va Bola holatlari orqali muloqot jarayonlarini tahlil qiladi. Talabalar o'rtasida yuzaga keladigan muloqot aynan ushbu egolar qanday harakatda ekanligiga bog'liq. Agar ikki shaxs o'rtasidagi transaksiyalar o'zaro mos kelsa, muloqot konstruktiv va barqaror bo'ladi; aks holda, konflikt va tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bernning nazariyasi shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan yashirin xabarlar, manipulyativ harakatlar va ijtimoiy o'yinlar orqali talabalar o'zlarining psixologik ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishlarini ta'kidlaydi. Bu holat, ayniqsa, talabalar o'rtasida liderlik, raqobat va do'stlik kabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalarning ichki ego-holatlari anglash va mos transaksiyalarni shakllantirish orqali jamoaviy birdamlikni kuchaytirish mumkin. Shuningdek, Bern transaksion analiz yordamida talabalar o'rtasidagi muloqotdagi emotsional jihatlarni nazorat qilish, ya'ni sog'lom emotsional reaksiyalarni rag'batlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

V. Frankl o'zining ekzistensial yondashuvi orqali talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning mazmuniy jihatini ochib beradi. Uning fikricha, inson, jumladan talaba ham, o'z hayotining mazmunini topishga intilar ekan, bu jarayon ijtimoiy aloqalarda o'z ifodasini topadi. Franklning "ma'no orqali yashash" konsepsiyasi talabalar jamoasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir talaba o'zining jamoadagi ishtirokini ongli ravishda baholaydi. U talabalarni o'zaro muloqot orqali ham ruhiy, ham ijtimoiy ma'no izlashga undaydi. Franklning nazariyasida shaxslararo munosabatlar faqatgina aloqa emas, balki insoniy qadriyatlar almashinuvi deb qaraladi. Bu qadriyatlar, ayniqsa, jamoaviy vazifalarni bajarishda, bir-birini qo'llab-quvvatlashda, hayotiy maqsadlarni tushunishda faol rol o'ynaydi. Frankl ijtimoiy aloqalar orqali shaxsning ruhiy barqarorligi oshishini, hatto psixologik krizislarni ham muloqot orqali engib o'tish mumkinligini ilgari suradi. Talabalar guruhidagi shaxslararo munosabatlar ongli ravishda shakllantirilganida, bu hayotga mazmunli munosabatni kuchaytiradi va ijtimoiy birlashuvni ta'minlaydi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizningcha, talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar o'zaro tushunish, ijtimoiy hamkorlik va psixologik barqarorlik kabi jihatlar asosida shakllanadi. Har bir talaba jamoada o'zining foydali va zarur ekanligini his qilgan sari, uning boshqa a'zolar bilan munosabati ijobiy tus oladi. Jamoaviy muhitda yuzaga keladigan ziddiyatlar, tushunmovchiliklar yoki chetlab o'tish holatlari ko'pincha shaxsiy ichki komplekslar va qoniqtirilmagan psixologik ehtiyojlar bilan bog'liq. Bunday holatlarda ochiq muloqot, empatiya va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan yondashuv munosabatlarni sog'lomlashtiradi. Shaxslararo aloqalar faqat hissiy emas, balki kognitiv hamda axloqiy jarayonlarga tayanadi, bu esa o'zini anglash va boshqalarni tushunish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Jamoada o'zaro barobar huquq asosidagi muloqot, shaxsiy maqsadlar bilan ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi va bu orqali talabalarning ruhiy salomatligi ham mustahkamlanadi. Mazkur yondashuv asosida shakllangan ijtimoiy-psixologik aloqalar, nafaqat shaxsiy o'sish, balki guruhning bir butun tizim sifatida barqaror rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan, shaxslararo munosabatlar insonning ichki dunyosi va tashqi muhit o'rtasida shakllanadigan muloqot ko'prigidir. Bu ko'prik orqali inson o'zining emotsional ehtiyojlarini, ijtimoiy identifikatsiyasini, o'z-o'zini anglashini va qadr-qimmatini namoyon etadi. Aynan shaxslararo munosabatlar orqali insonlar bir-biriga ruhiy tayanch bo'la oladilar, o'zaro ishonch uyg'otadilar va jamoaviy birdamlikni shakllantiradilar. Bu munosabatlar doirasida ijobiy hissiyotlar (masalan, hurmat, muhabbat, empatiya) hamda salbiy holatlar (masalan, adovat, raqobat, befarqlik) ham mavjud bo'lishi mumkin. Shu sababli, psixologiyada shaxslararo munosabatlar faqat muloqot shakli emas, balki shaxsning ichki va tashqi uyg'unligini ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaraladi.



Bunday munosabatlarning shakllanishida bir nechta asosiy mexanizmlar ishtirok etadi. Jumladan, identifikatsiya – boshqa shaxsga o'zini tenglashtirish orqali uning fikri va his-tuyg'ularini tushunishga intilish; empatiya – boshqa insonning kechinmalarini ichki his etish qobiliyati; refleksiya – o'z xatti-harakatlariga baho berish va ularni boshqalar qarshisida ko'zdan kechirish. Bu psixologik mexanizmlar orqali shaxslararo aloqalar chuqurlashadi va o'zaro munosabat sifati oshadi. Ayniqsa, yoshlar va talabalar orasida shaxslararo munosabatlar nafaqat do'stlik, balki jamoada o'z o'rnini topish, shaxsiy rivojlanish va o'zini ijtimoiy jihatdan anglash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarning sifati ko'pincha guruhning umumiy psixologik iqlimi, liderlik uslublari, ijtimoiy rollarning aniq taqsimoti va o'zaro munosabatlardagi ishonch darajasi bilan belgilanadi. Agar guruh a'zolari o'zaro ochiq, samimiy va empatik muomala olib borsalar, u holda shaxslararo munosabatlar ijobiy shakllanadi. Aksincha, aftoritar muhit, adolatsizlik yoki kommunikativ to'siqlar mavjud bo'lsa, bu aloqalar buziladi, konfliktidan iborat muhit yuzaga keladi. Shu boisdan ham, psixologik jihatdan sog'lom jamoa yaratish uchun shaxslararo munosabatlarni ongli ravishda boshqarish va rivojlantirish lozim bo'ladi.

Guruh psixologiyasi insonlarning kichik ijtimoiy birliklarda qanday o'zaro ta'sirlashuvi, guruh ichida qanday psixologik holatlar, pozitsiyalar va jarayonlar sodir bo'lishini o'rganadigan psixologiyaning muhim yo'nalishidir. Har qanday guruh, xususan talabalar jamoasi, o'zining psixologik tuzilmasiga ega bo'lib, bu tuzilma a'zolar orasidagi o'zaro munosabatlar, rollar, maqomlar, muloqot shakllari va ijtimoiy me'yorlar orqali namoyon bo'ladi. Guruh ichida sodir bo'ladigan bu psixologik jarayonlar talabalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Talabalar jamoasi o'zining dinamik va doimiy o'zgaruvchan tabiati bilan boshqa ijtimoiy guruhlardan farq qiladi. U yerda yoshga oid o'ziga xosliklar, emotsional sezuvchanlik, o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilish va shaxsiy mustaqillikni shakllantirish kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Aynan shu holatlar talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlarni murakkab va ko'p qirrali qiladi. Guruh ichidagi psixologik iqlim – ya'ni ishonch, qo'llab-quvvatlash, hamkorlik va hurmat muhitining mavjudligi – talabalar o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantiradi va o'zaro aloqalarni kuchaytiradi.

Guruhda har bir talaba ma'lum bir psixologik rolni bajaradi: lider, tashabbuskor, kuzatuvchi, muvofiqlashtiruvchi yoki qarshilik ko'rsatuvchi. Bu rollar shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga va guruhdagi umumiy iqlimga ta'sir qiladi. Masalan, faol tashabbuskor talaba guruhdagi boshqalarni rag'batlantirishi mumkin, passiv ishtirokchilar esa guruh faolligini pasaytirishi ehtimoli mavjud. Guruh psixologiyasi talabalar o'rtasidagi bu o'zaro rol almashinuvlarini tahlil qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Shaxslararo munosabatlar guruh ichidagi kommunikatsiya sifati bilan chambarchas bog'liq. Ochiq va samarali muloqot imkoniyati mavjud bo'lgan jamoalarda talabalar o'z fikrlarini erkin bildira oladilar, o'zaro tushunish darajasi yuqori bo'ladi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchli bo'ladi. Aksincha, kommunikatsion to'siqlar, stereotiplar va xurofotlar mavjud guruhlarda shaxslararo munosabatlar sovuqlashadi va konfliktidan iborat muhit yuzaga keladi.

Shuningdek, talabalar jamoasida shaxslararo munosabatlar faqat individual xususiyatlar asosida shakllanmaydi. Bu munosabatlar ijtimoiy ta'sir, guruh normasi, umumiy maqsadlar va jamoaviy faoliyat orqali rivojlanadi. Guruh a'zolari birgalikda harakat qilgan sari ularning o'zaro aloqalari chuqurlashadi, hamfikirlik va ruhiy yaqinlik kuchayadi. Bu jarayon "biz" hissining shakllanishiga olib keladi, bu esa har bir a'zoni o'zini guruhning ajralmas qismi sifatida his etishga undaydi.

Shaxslararo munosabatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi guruh ichida sog'lom ijtimoiy psixologik muhitni yaratishning asosiy omilidir. Buning uchun ijtimoiy psixologik treninglar, kooperativ o'yinlar, rolli mashqlar va muloqotga yo'naltirilgan faoliyatlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali talabalar nafaqat o'zaro munosabatlarni o'rnatadi, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan o'z ustida ishlashga ham odatlanadilar.

Fikrimizcha, guruh psixologiyasi talabalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni anglash va ularni shakllantirishda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalar jamoasi o'zining dinamik va yoshga xos xususiyatlari bilan alohida tahlilni talab etadi, chunki unda shaxsiy o'sish, emotsional sezgirlik va o'zini anglash kabi jarayonlar faol kechadi. Guruh ichida har bir a'zoning psixologik roli va pozitsiyasi umumiy muloqot iqlimiga, ishonch va hamkorlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shaxslararo munosabatlarning ijobiy shakllanishi uchun guruhda ochiq muloqot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va barqaror ijtimoiy me'yorlar mavjud bo'lishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, jamoaviy birdamlikni mustahkamlab, o'zaro tushunishni chuqurlashtiradi. Talabalar birgalikdagi faoliyat orqali "biz" hissini shakllantirar ekan, bu jarayon

ularning guruhga daxldorlik tuyg'usini kuchaytiradi. Bunday ijtimoiy-psixologik muhit esa o'zaro hurmat, emotsional barqarorlik va konstruktiv munosabatlar uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalar jamoasi ijtimoiy tizim sifatida o'z ichida barqaror ijtimoiy-psixologik tuzilmani shakllantiradi. Bu tuzilma o'z navbatida jamoaviy normativlar, rollar va maqomlarning mavjudligi orqali tashkil topadi. Ijtimoiy psixologiyada jamoa normasi guruh a'zolari tomonidan qabul qilingan va kutiladigan xatti-harakatlar standartlarini anglatadi. Masalan, A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, talabalar o'zaro ta'sirda bo'lish jarayonida guruhda maqbul deb hisoblangan xulq-atvorni modelleshtirish orqali o'zlashtiradilar. Bu jarayon odatda guruhdagi ko'pchilik tomonidan ijobiy baholangan harakatlarni takrorlash orqali mustahkamlanadi. Normativlar nafaqat axloqiy qoidalarni, balki muloqot uslublarini, fikr bildirish erkinligini, qo'llab-quvvatlash darajasini ham belgilab beradi [3].

Jamoaviy rollar esa guruh ichida har bir a'zo tomonidan bajariladigan funktsional pozitsiyani bildiradi. Bu pozitsiyalar ongli ravishda tayinlanishi mumkin yoki ijtimoiy dinamiklar asosida tabiiy ravishda shakllanishi mumkin. Bunday rollarga lider, tashabbuskor, muvofiqlashtiruvchi, vositachi, passiv kuzatuvchi kabi vazifalar kiradi. Taniqli ijtimoiy psixolog K. Levin o'z tadqiqotlarida shuni ta'kidlaganki, guruh rollarining muvozanatli taqsimoti guruhning ijtimoiy iqlimini barqarorlashtiradi va ichki nizolarni kamaytiradi. Shuningdek, guruh a'zolari o'zlariga yuklatilgan roldan chiqmaslik uchun ijtimoiy javobgarlik hissini rivojlantiradilar.

Guruh ichida maqom (status) esa shaxsning obro'si, salohiyati va jamoa tomonidan unga nisbatan belgilangan ijtimoiy bahoni ifodalaydi. Amerikalik sotsiolog T. Parsons ijtimoiy tizimlar doirasida maqomni jamiyatdagi rollarning baholanish darajasi sifatida talqin qilgan. Talabalar jamoasida maqom ko'pincha akademik muvaffaqiyat, yetakchilik qobiliyati, muloqot ko'nikmalari yoki ijtimoiy faoliyat asosida shakllanadi. Yuqori maqomdagi talaba odatda boshqalar uchun psixologik nuqtai nazardan ta'sirchan model bo'lib xizmat qiladi, uning xatti-harakatlari guruh normalariga moslashuvga kuchli turtki beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamoaviy normativlar, rollar va maqomlar talabalarning shaxslararo munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, normativlar talabalarning bir-biriga bo'lgan hurmati va emotsional yaqinligining asosini tashkil qilsa, rollar guruh faoliyatining muvofiqlashtirilganligini ta'minlaydi, maqom esa shaxslararo aloqalarning ierarxik tuzilishini belgilaydi. Ushbu komponentlar o'zaro uyg'unlashgan holda jamoa iqlimini shakllantiradi, o'zaro tushunishni mustahkamlaydi va ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alfred Adler What Life Should Mean to You Martino Fine Books, 2024, 310 p. ISBN: 978-1684229024
2. Allport Gordon W. Pattern and Growth in Personality Harcourt College Publishers, 1991, 308 p, ISBN: 978-0030108105
3. Albert Bandura Social Learning Theory Taylor & Francis, 2021, 261 p, ISBN: 978-104009271
4. Philip G. Zimbardo Psychology According to Shakespeare Prometheus Books, 2024, 344 p, ISBN: 978-1633889606
5. Viktor E. Frankl Man's Search for Meaning Beacon Press, 2000, 200 p, ISBN: 978-0807014271
6. Климов Е.А. Введение в психологию труда. Учебник для вузов. – М.: Культура и спорт, ЮНИТИ, 1998. - 350 с
7. Козлов В.В. Социальная психология и реклама. Учеб. пособие для вузов/ Под ред. – Тошкент: Издательско-полиграфический творческий дом им. 2004.- 120 с.
8. Skinner F.B. Reflections on Behaviorism and Society (Extended Edition) Sloan Publishing, 2004, 250 p, ISBN: 978-0996453954
9. www.unimelb.edu.au,
10. <https://nus.edu.sg>,
11. <https://en.snu.ac.kr>,
12. <https://www.sorbonne-universite.fr/en>.
13. <http://www.mapn.su>, www.pirao.ru, msu.ru

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.